

“Fuqaro muhofazasi” institutida

“Hayot faoliyati xavfsizligi” yoʻnalishi 209 guruh talabalari 5 noyabr kuni Favqulodda vaziyatlarda qoʻllaniladigan zamonaviy jihozlar bilan yaqindan tanishish va sohaga doir yangi texnologiyalarni oʻrganish maqsadida guruh rahbari Mirhosilova Zulfiya hamda “Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi” fani oʻqituvchisi Saidxoʻjaeva Nafisa boshchiligida Oʻzbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi qoshidagi “Fuqaro muhofazasi” institutiga bordilar.

U yerda “Fuqaro muhofazasi” instituti Simulyatsiya markazi boshligʻi podpolkovnik Oʻ.Nazarov va institut katta oʻqituvchisi L.Galimova talabalarga zilzila haqidagi koʻnikmalarini oshirish bilan bir qatorda yangi maʼlumotlarga ham ega boʻldilar. Ushbu institutda Markaziy Osiyoda yagona boʻlgan “Zilzila semulyatori”da zilzila paytida harakat qilish chora-tadbirlari borasidagi bilimlarini sinab koʻrishdi. Tarixdan maʼlum boʻlgan zilzila talofatlari haqida koʻplab maʼlumotlar berildi.



**Hayot faoliyati xavfsizligi kafedrasini oʻqituvchilari N.Saidxujayeva va Z.Mirxasilovalar
axboroti**

Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov